

MAVZU : ZULUKLARNI TIBBIYOTDA QOLLANILISHI**Ibaydullayev. Hojimuhammad****Biloldin o'gli****KOAND UNIVERSITETI ANDIJON****FILIALI DAVOLASH ISHI YONALISHI****25-09. guruh talabasi****ibaydullayev2025@mail.ru +998884722499****ILMIY RAXBAR : Qobilov Hojiakbar****Baxtiyor o'gli**

ANOTATSIYA : Zuluklar (Hirudinea) — halqali chu-valchanglar tipining sinfi. Tanasining uz. bir necha sm dan 15 sm gacha, ba'zan undan ham uzunroq. Tanasi orqa va qorin tomondan yassilashgan, ba'zan silindrsimon, 33 ta tashqi hal-qadan iborat. 3. tanasining tashqi hal-qalari soni ichki halqalari soniga teng bo'lmaydi, odatda, har bir ichki halqaga 3—5 ta tashqi (ikkilamchi) halqa to'g'ri keladi. 400 ga yaqin turi chuchuk suv havzalari va dengizlarda tar-qalgan. Zuluk bilan davolash (girudoterapiya) —

Girudoterapiya (lot. hirūdō — «zuluk» va qad. yun. θεραπεία — «davolash») — ma'lum kasalliklarni dorivor zuluklar (Hirudo medicinalis) yordamida davolash usuli. Fizioterapevtik muolaja, muqobil tibbiyotga oid sanaladi. Bunday zuluklar ushbu kichik sinf chuchvalchanglariga oid yagona tur hisoblanadi, qolganlari shifobaxsh ta'sir ko'rsatmaydi. Dunyoning barcha mamlakatlarida girudoterapiya ko'plab kasalliklarni davolash va oldini olish uchun ishlatiladi va ushbu usulning asosiy ustunligi asoratlarsiz umumiy tiklanishdir.

KALIT SOZLAR : Zuluklar, halqalo chuvalchanglar, silindirsimon, girudoterapiya, hirudo -medicinalis, zuluk yordamida davolash.

KIRISH : Girudoterapiya tarixi

Girudoterapiya tarixi ikki ming yildan ko'proq vaqtni o'z ichiga oladi. Qadimgi Yunoniston, Hindiston, Misr, Xitoyda zuluklar bilan davolash mashhur bo'lgan. Afsonaga ko'ra, bepushtlikdan aziyat chekkan qirolicha Kleopatra zuluklarning ta'siri tufayli Yuliy Sezardan homilador bo'la olgan. Shundan so'ng, hatto Misr fir'avnlari qabri devorlarida zuluklar tasvirlari paydo bo'la boshlagan.

Zuluklar yordamida yurak muammolari, bosh aylanishi, nafas qisilishi, bepushtlik davolangan. Girudoterapiya shu qadar mashhur ediki, Uyg'onish davri ustalari, masalan, Bottichelli, hatto o'z san'at asarlarida buni aks ettirishgan. Zuluklarning inson tanasiga shifobaxsh ta'siri

Dorivor zulukning shifobaxsh ta'siri uning so'lagiga asoslangan — unda bioaktiv moddalar mavjud. Asosiy tarkibiy qism — bu girudin, u qon ivishini oldini oladi va qon tromblarini rezorbsiya jarayonini rag'batlantiradi. Girudin va so'lakning boshqa bioaktiv tarkibiy qismlari bakteritsid (patogen mikroblarni o'ldiradi), shuningdek bakteriostatik (bakteriyalar ko'payishi va rivojlanishini oldini oladi) ta'siriga ega. Ushbu moddani aniqlash davomida olib borilgan izlanishlar tibbiyotda antikoagulyantlarni qo'llay boshlash amaliyotiga asos solgan. Zuluklarning so'lagi tarkibida gialuronidaza fermenti mavjud bo'lib, u faol moddalarni organizmning to'qimalariga chuqur kirib borishiga imkon

beradi — 10 sm`gacha. Shuningdek, bu ferment biriktiruvchi to`qimalarni parchalaydi, shu sababli chandiqlarning so`rilib ketishini kuchaytiradi. Zuluklar qadimdan turli kasalliklarga davo sifatida ishlatilgan. Zulukning asosiy vazifasi - bemor tanasidan buzilgan qonni olib tashlash, degan noto`g'ri gipoteza mavjud. Ularning so`lagi to`g'ridan -to`g'ri shifobaxsh xususiyatlarga ega, so`lak bilan zuluklar tanaga ko`p miqdordagi turli fermentlarni yuboradi.

Girudoterapevtlar zuluklarni ming dardga davo deganlarida, ularni xususiyatlarini oshirib emas, balki bu ajoyib mavjutodlarni xususiyatlarini kamaytirib aytishadi. Ularning haqiqatda ajoyibligini faqat ular bilan yaqindan tanishgan insonlar tan olishadi.

Fanga 400 ga yaqin zuluklar turi ma`lum. Biroq, tabobatda faqatgina zuluklarning ikkita turi (dorixona va tibbiy) ishlatiladi. Tibbiy zuluk boshchasida 5 juft ko`z, og`zida esa 3 ta xitin tishli jag `bor. Ular yordamida zuluk terini 1,5 mm chuqurlikda tishlab, 5-15 ml hajmda qon so`radi. Tishlar izi tushgan joydan keyinchalik (3-24 soat ichida) shuncha qon oqib chiqadi. Bir davolash seansiga 5 dan 7 tagacha zuluk qo`yiladi.

DAVOLASH USULLARI : Girudoterapiya usulining davolash samarasi uchta omildan iborat – ya`ni, reflektor, mexanik va biologik. Zuluklarning reflektor ta`siri teridagi faqat biologik faol (akkupunktur) nuqtalarni tishlashiga asoslangan. Mexanik ta`siri – ular tishlagan joydagi regional(mahalliy) qon aylanishini yengillashtirishi, ya`ni tishlangan joyda qonni so`rib olinishi va undan keyingi jarohat joyidan biroz miqdorda yara bitguncha davomiy qon oqib turishidan iborat. Girudin qon quyilishini oldini oluvchi, og`riq qoldiruvchi, yallig`lanishga qarshi, tromb(qon quyilishi natijasida laxta-tromb hosil bo`lishi) paydo bo`lishiga qarshi xususiyatlarga ega. Destabilaza esa tromblarning so`rilishiga sabab bo`luvchi moddadir. Gialuronidaza chandiqli kasalliklarni

so‘rilishida faol ishtirok etadi. Eglinlar to‘qimalarni jarohatlanishi va yallig‘lanishini kamaytirish xususiyatiga ega. • Oshqozon-ichak trakti kasalliklari;

- O‘pka kasalliklari;
- Qalqonsimon bez kasalliklari;
- Siydik-tanosil tizimi kasalliklari;
- Teri kasalliklari (shuningdek kosmetik nuqsonlar);
- Markaziy va periferik asab tizimi kasalliklari;
- Revmatologik kasalliklar;
- LOR kasalliklar;
- Mushak-skelet tizimi kasalliklari;
- Infektsion kasalliklar;
- Turli jarohatlar;
- Ko‘z kasalliklari.

shifobaxsh zuluk qollaniladi

qarshi korsatmalar mavjud mana bu kasalliklarda zuluklar bilan davolash tavsiya etilmaydi: Trombotsitopeniya;

- Onkologiya;
- Gemofiliya;
- Uzoq muddatli va og‘ir qon ketishlar;
- Qon ivishining buzilishi;

- **Zuluklarning soʻlagi tarkibiy qismlariga nisbatan intolerantlik.**

Muolaja qanday oʻtkaziladi

Girudoterapiyaning mohiyati tanaga dorivor zuluklarni qoʻyishdan iborat. Bitta muolaja davomiyligi 40-60 daqiqani tashkil etadi, bunda oʻrtacha 6-10 ta zuluk ishlatiladi. Ularning har biri 5 mlʻdan 15 mlʻgacha qon soʻrib olishi mumkin. Oʻrtacha davolanish kursi 7-14 kunlik tanaffus bilan 10 seansdan iborat boʻladi.

Oʻtkazilish tartibi:

- **Teri spirt bilan artiladi. Boshqa antiseptik ishlatilmaydi, chunki zuluklar hidga juda sezgir boʻlishadi;**
- **Zuluklarni joylashtiriladi. Ularning tishlov chuqurligi sayoz — 2 mm gacha. Soʻlak tarkibida ogʻriq qoldiruvchi ferment mavjud, shuning uchun bunda deyarli noqulaylik sezilmaydi;**
- **Muolaja paytida zuluklar asta-sekin bemorning qoniga soʻlak tarkibidagi bioaktiv moddalarni ajrata boshlaydi. Taʼsir zonasida ushbu moddalarning 70-80 foizigacha kasal aʼzoga «kirib boradi». Shundan soʻng zuluk qonni soʻrib olishni boshlaydi;**
- **Jarayondan soʻng, zuluk olinib, tishlovi joyiga steril salftkaler qoʻllaniladi. Aksariyat hollarda zuluklar yetarlicha qon soʻrgach, oʻzlari tushib ketgunlaricha qoʻyiladi. Zulukni muddatidan oldin tanadan olish uchun uning oldingi soʻrgichiga spirt yoki yodga yengil botirilgan paxta qoʻyish yetarli boʻladi, shunda ular darhol tushib ketadi. Shuningdek bu maqsadda uning ustiga tuz sepish, sirka kislotasi yoki boshqa oʻtkir hidli moddani unga yaqin keltirish**

mumkin. Agar zuluk qon so'rishni to'xtatmasa, uning old so'rgichini skalpel yordamida ko'tarib, uning ostiga havo kiritish kerak. Zulukni kesib tashlash befoyda, bunda u qon so'rishni davom ettiraveradi. Qo'llanilgach, zuluklar odatda yo'q qilinadi, ularni qayta ishlatishga yo'l qo'yilmaydi.

Yurtimizda shifobaxsh zuluklar kopaytrivchi maxsus laboratoriya va korxonalar mavjud va u yerlarda shifobaxsh zuluklarni yangi turlarini yaratish boyicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda

Xulosa

Shifobaxsh zuluklar (*Hirudo medicinalis*) inson tanasiga ko'plab foydali ta'sir ko'rsatadi. Ularning so'lagi bioaktiv moddalar, xususan girudin, gialuronidaza va boshqa fermentlarni o'z ichiga oladi, bu esa qon ivishini tartibga solish, tromblarni kamaytirish, yallig'lanishni kamaytirish va jarohatlarning tez bitishini ta'minlaydi. Zuluklar reflektor, mexanik va biologik ta'sir orqali qon aylanishini yaxshilaydi, metabolizmni rag'batlantiradi va turli kasalliklarni davolashda yordam beradi. Girudoterapiya yordamida oshqozon-ichak, qalqonsimon bez, o'pka, teri, asab tizimi va revmatologik kasalliklar, shuningdek kosmetik va jarohat davolashda samarali natijalar kuzatiladi. To'g'ri va mutaxassis nazorati ostida qo'llanilganda, zuluklar asoratsiz tiklanish va sog'lomlikni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

uz.wikipedia.org , shifomed.uz , med24.uz , Tib-art.uz , Megabazar.net , Med360.uz , [Yandex AI](https://Yandex.AI) , shifokor24.uz.